

**TARIX DARSALARIDA VATANPARVARLIK KO'NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI**

Shahnoza Abdullayeva

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti akademik litseyi o'qitivchisi*

Email: shahnoza210707@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tarix darsalarida vatanparvarlik ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy hamda vatanparvarlik masalalarini kun tartibiga chiqarishga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Abdulla Avloniy, ta'lif, tarbiya, vatanparvarlik, sharq mamlakatlari mintaliteti, ota-onas, tarix fani o'qitivchilari.

Yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish hamda demokratlashtirish, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish, hududlarni kompleks rivojlantirish, ta'lif-tarbiya sifatini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur vazifani amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “Har kim ta'lif olish huquqiga ega. Davlat uzlusiz ta'lif tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lif tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi.”¹ deb qayd qilingan. Shuningdek, vatanparvarlik masalalarini kompleks rivojlantirish uchun oxirgi besh yil davomida xalq ta'lifi tizimini takomillashtirishning huquqiy asoslari yaratildi. Xususan, “Ta'lif to‘g‘risida”² Qonunning yangi tahriri qabul qilindi, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lifi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlandi. Maktab ta'lifini rivojlantirish sohasida bevosita 17 ta hujjat, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 ta hujjati qabul qilindi.

Ta'lif-tarbiya masalasini rivojlantirish, shuningdek, milliy ong va g'urur masalalariga e'tibor qaratish bugun har qachongidan muhim hisoblanadi. Aslida kishilik jamiyatida barcha fanlarning o'rni bo'lak, ammo ijtimoiy fanlar ichida tarix fanining tarkibiy vazifalaridan eng asosiysi faol fuqaro yo'naliishida komillik intiluvchi shaxsni tarbiyalash hisoblanadi. Shu ma'noda tarix darsalarida vatanparvarlik ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy masalalarini chuqr tahvilini amalga oshirish, tarixiy bilmoq tamoyillari, ko'p mingyllik tarixiy voqelik xususiyatlaridan kelib chiqish ayni paytda har qachongidan dolzarblik kasb etmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “O'zbekiston” 2023. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. Elektron manba: <https://lex.uz/uz/docs/-6445145#-6445572>

² O'zbekiston Respublikasining “Ta'lif to‘grisida”gi qonuni. 2023. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-5013007>

Ma'lumki, jadid ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir"³ degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar haqiqat ekanini bugun, har qachongidan ham yaxshi anglamoqdamiz. Bundan tashqari buyuk vatandoshlarimizdan birir Imom G'azzoliy bunday deydi: "Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqsh-u tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyo-yu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallim-u ustozlari ham sherik bo'ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o'z holiga tashlab qo'yilsa, oxir-oqibat halok bo'ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo'lganlarning gardaniga tushadi".⁴

Demak, bugun ilm-fan va ta'lim izchil rivojlanib borayotgan bir davrda hech shak-shubhasiz vatanparvarlikni ta'limning tarkibida turishi shartdir. Shunday ekan, ilm-fan ta'lim-tarbiya va vatanparvarlikni singdirish asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, har bir tarbiyachi, muallim va ustozning ta'lim berishdan maqsadi Vatan va el-yurt xizmatida turadigan halol, zamon ruhiga mos raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalash bo'lsagina, bunday ta'lim-tarbiya o'z samarasini bermay qolmaydi. Bugungi kunning o'qituvchi va muallimi o'zi ta'lim berayotgan shaxsga fidoyilik bilan ta'lim berishi, jonkuyar tarbiyachi bo'lishi bilan bir qatorda faol mamlakati taqdiriga befarq bo'limgan faol fuqaroni tarbiyalashi shart. Bu masalada o'qituvchi va muallimlar o'quvchi yoshlarga shaxsan namuna bo'lishlari ham muhim hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda tarix darsliklarida vatanparvarlik namunasi sifatida: Shiroq, To'maris, Spitamin, Muqanna, Mahmud Torobi, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va boshqa bir qancha vatandoshlarimizning gohida ibratli va gohida juda og'ir hayot yo'li masalasi yoritilmoxda. Maktab tarix darsliklarida bu singari vatandoshlarimizning barchasining faoliyatini yorqinroq targ'ib etish uchun olimlar, darslik mualliflari tomonidan eng maqbul va samarali usullardan foydalanilmoqda. Ammo bu borada yetarlicha kamchiliklar ham mavjud. Xususan, dunyo davlatlarining aksariyati jumladan Xitoy, Yaponiya, Turkiya va boshqalar tarix fani vositasida yosh avlodni vatanparvarlikning eng yuqori namunasida tarbiyalash masalasida tadqiqotlar olib borishmoqda. Negaki, dunyo mamlakatlari global jamiyatda mamlakat o'zining asosiy poydevori asoslarini vatanparvarlikdan olishini allaqachon anglab yetishgan. Shu ma'noda bu masala O'zbekiston Respublikasi uchun ham muhim hisoblanadi.

Vatanparlikni tarbiyalashni shartli ravishda jismoniy-harbiy va ma'naviy-ruhiy

³ <https://hikmatlar.uz/author/269>

⁴ Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy. Ihyou ulumid-din (Qalb kitobi). T., "Movarounnahr" 2006.

tarbiyalashga ajratish mumkin. Jismoniy-harbiy tarbiya xususida 2022 yildagi aniq ko'rsatkichlar quyidagicha: "Bugungi kunda respublikamizdagi 10130 ta mактабдан 9898 tasida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qilib, ularda 9726 nafar pedagog faoliyat olib bormoqda. O'qituvchilarning 3442 nafari (35,3 foiz) oliy ta'lif muassasalarini shu mutaxassislik bo'yicha tamomlagan zaxiradagi ofitserlar, 3346 nafari (34,5 foiz) Qurolli Kuchlar safidan nafaqaga chiqqan harbiy pensionerlar, 2983 nafari (30,2 foiz) esa nomutaxassis pedagoglar hisoblanadi."⁵

Mamlakatimizda vatanparlik ruhida ma'naviy-ruhiy tarbiyalash asosan respublikamizdagi qariyb 11 mingta⁶ni tashkil etuvchi umumta'lif maktablarida tarix va boshqa ijtimoiy fanlar o'qituvchi-murabbiylari tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Bu sohada yutuqlar bilan birga hal qilinishi lozim muammolar har topiladi. Muammolarni shartli ravishda kadrlar, moddiy tehnik-baza, hududlardagi umumta'lif maktab ta'lifiga bo'lgan munosabat va boshqalarga bo'lib ko'rsatishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot institutida olib borilgan tadqiqotlar natijasida Abdulaziz Rasulev, Shoxjaxon Xo'jayev tomonidan quyidagi ilmiy xulosalarga kelinadi. "Ta'lifning asosiy muammolari va uning sifati tushib ketishining sabablari:

1. O'qituvchilar va jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlardagi muammolar.
2. Maktab o'qituvchisi kasbining obro'si unchalik yuqori emasligi.
3. Maktablarning moddiy-texnik ta'minot bilan bog'liq muammolar.
4. Maktabdagi o'quv dasturlari muammolari."⁷

Demak, vatanparvarlik masalasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar yuqorida mavjud muammolarni bartaraf etish bilan bevosita bog'liq. Yuqoridagi muammolar sirasiga bizningcha o'qituvchining ixtisoslik fanidan bilimi omilini ham qo'shish zarur deb o'ylaymiz. Sababi ta'lif o'qituvchi va ta'lif oluvchining birdek faolligi asosida barpo etilsagina ijobiy natija beradi. Aks holda bilim olish yoki ta'lifni mazmunida lozim ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida bo'shliqlarni bartaraf kerak bo'lib qoladi.

Maktab ta'lifida o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalarini tarix darslarida singdirish jarayonida uchraydigan muammolarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ishni tarix ustozlar tayyorlash huquqiga ega ta'lif muassasalardagi ta'lif berish mazmunini tubdan isloh qilish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari tarix fani sohasida tarkibiy o'zgarishlar qatorida shunchaki darslik mazmunini yodlashdan uni tahlil qilishga o'tish davri ham keldi, chamamda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida bugun bilimni baholashning eng samarali usuli

⁵ <https://mudofaa.uz/15861/>

⁶ <https://uzreport.news/society/ozbekistonda-umumta-lim-muassasalari-soni-qariyb-11-mingtani-tashkil-etmoqda>

⁷ <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/maktab-talimi-tizimi-muammolar-va-istiqbollar>

sifatida fikrlash bilan bog'liq mantiqiy vazifalar yordamida saralash amaliyoti qo'llanilmoqda. Ma'lum bir fikrni shunchaki sxolastik tarzda yoddan bilish, bugun shiddat bilan rivojlanayotgan dunyo afkor ommasida ko'pgina muammolar oldida raqobatga dosh bera olmaydigan, o'z sohasida yetarli bilimga ega bo'lmasdan turib vakolatli idoralarni boshqaradigan, muammoli vaziyatlarda yechim qidirish o'rni masalani vaqt omili bilan bartaraf etishga xarakat qiladigan kadrlarni ko'paytmoqda. Shu nuqtai nazaridan tarix fani oldida faqat tadrijiy fikrlash va o'tmishdan tog'ri xulosa chiqarish ko'nikmasiga ega avlodni tarbiyalash emas aksincha, vatanparvar, kerakli o'rinda mustaqil qaror qila oladigan shaxsiy manfaatlaridan o'zi tug'ilgan vatan manfaatlarini yuqori quya oladigan avlodni ulg'aytirish muhim hisoblanadi.

Yuqorida berilgan barcha fikrlarimizni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, mamlakatimizda fuqarolarni faol fuqaro pozitsiyasida tarbiyalash maqsadlarini ko'zlagan holda mamlakatimizdagi normativ hujjatlarning tegishli moddalarini, shuningdek, fan dasturlari va tarix darsliklarini hozirgi global zamon nuqtai nazaridan ko'rib chiqish lozim.

Ikkinchidan, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida aniq manzilli mexanizmga ega "oila – ta'lim muassasasi – mahalla" konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilish lozim.

Bizningcha, O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida ta'limning mazmunini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida tegishli dastur va darsliklarni optimal yechim sifatida xorij tajribasini sharq mamlakatlari mintaliteti hisobga olgan holda ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., "O'zbekiston" 2023. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. Elektron manba: <https://lex.uz/uz/docs/-6445145#-6445572>
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'grisida"gi qonuni. 2023. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. Imam Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy. Ihyou ulumid-din (Qalb kitobi). T., "Movarounnahr" 2006.
4. <https://hikmatlar.uz/author/269>
5. <https://mudofaa.uz/15861/>
6. <https://uzreport.news/society/ozbekistonda-umumta-lim-muassasalari-soni-qariyb-11-mingtani-tashkil-etmoqda>
7. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/maktab-talimi-tizimi-muammolar-va-istiqbollar>